



Tadqiqot **uz**

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих сағифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**No22**  
30 ноябрь

[conferences.uz](http://conferences.uz)

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
3-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
22-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-3**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
22-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2020**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 22-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 22 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР**

**1. Alikulov S.**

TOSHKENT SHAHAR MARKAZIY DAVLAT ARXIVIDA IQTISODIY-IJTIMOIY  
TARIXGA OID HUJJATLAR..... 7

**2. Xolbekova Moxira Mamatkarimovna**

SHOHRUX MIRZO..... 10

**3. Djaborova Nafisa Sodikjonovna**

TARIXNI BILISH O'ZLIKNI ANGLASHDIR ..... 11

**4. Наимова Нодира Олимовна**

ҚАДРИЯТЛАР ЭШИГИНинг ХАЁЛИЙ ТУТҚИЧЛАРИ ..... 13

**5. Султонова Нигина**

“АРОБАК”-БУРУН ҲАЛҚАСИ ..... 16

**6. Imomaliyeva Xayriniso Choriyevna**

TARIX DARSLARINI O'QITISHDA INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGILARIDAN  
FAOYDALANISH ..... 18



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

### TOSHKENT SHAHAR MARKAZIY DAVLAT ARXIVIDA IQTISODIY-IJTIMOIY TARIXGA OID HUJJATLAR

*Alikulov S.  
O'z MU magistranti  
Tel:+998996362595  
Salim21139595@mail.ru*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Toshkent shahar Markaziy davlat arxividagi ma'lumotlar asosida sobiq SSSR va mustaqillik davrida Toshkent shahrida iqtisodiy-ijtimoiy hayot rivoji uchun qanday e'tibor qaratilganligini ko'rishimiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Arxiv, Kirov, Kuybishev, Lenin, Moskva, Oktyabr, Sergeli, Sobir Rahimov, Stalin, Frunze, Xamza, Chilonzor, sovet, komitet, kapital, yig'majild, fond, deputat va boshqalar.

Toshkent shahar Markaziy davlat arxivida jamlangan hujjatlar yuqorida ta'kidlanganidek, Sovet davriga oid hujjatlar va mustaqillik davriga oid hujjatlarga bo'linadi.

Iqtisodiy sohaga oid hujjatlarga sirasiga asosan, rejalashtirish va statistika, bank va moliya, soliq, iqtisod, sanoat, qurilish, savdo va h.k. sohalarga oid hujjatlar kiradi.

Sovet davri rejalashtirish siyosatiga oid Toshkent shahar Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan eng muhim fond bu – Toshkent shahar ishchilar deputatalari soveti rejalashtirish komissiyasi (Горплан)ning C-0007 fondi hisoblanadi. Bu fond 1929-yil 9-sentabrda tashkil etilgan va unda 2573 ta yig'majild jamlangan bo'lib, bu fonddagi hujjatlar 1930-1991-yillarda amalga oshirilgan rejalashtirish ishlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Xususan, ushu fondda 1966-yilgi zilziladan so'ng Toshkent shahrining qayta tiklanishi bo'yicha rejalarining qisqacha hisoboti, 1971-1972-yillardagi kapital qurilishning qisqacha hisoboti, 1976-1981-yillarga mo'ljallangan tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish rejalar, 1985-yil sobiq SSSRda M.S.Gorbachyov tomonidan boshlangan "Qayta qurish" siyosati davrida O'zbekiston SSRda, xususan, Toshkent shahrida qilinishi kerak bo'lgan ishlar rejalarining qisqacha hisoboti kabi e'tiborga molik hujjatlar jamlangan.

Statistikaga oid eng muhim hujjatlar sirasiga esa Toshkent shahar ishchilar deputatalari soveti ijroiya komitetining statistika boshqarmasi (Горстатуправление)ning C-0028 fondi kiradi. Bu fond 1926-yilda tashkil etilgan bo'lib, unda 1926-1992-yillarga oid 26264 ta yig'majild jamlangan.

Fondda xalq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha rejalarining bajarilishi to'g'risidagi hisobotlar, tashkilotlar va muassasalar faoliyatining barcha turlari bo'yicha yillik statistic to'plamlar, yirik korxonalar, ilmiy va madaniy muassasalarning yillik statistik hisobotlari, mehnat rejalarining bajarilishi, oily va o'rta maxsus ma'lumotga ega mutaxassislarining mavjudligi, kadrlar taqsimoti bo'yicha hisobotlar, maktablar, texnik maktablar, oliy o'quv yurtlari, mehnat va ish haqi, sog'liqni saqlash, kooperativlar va kichik korxonalar faoliyati to'g'risidagi hisobotlar jamlangan.

Moliya va bank sohasiga oid hujjatlarni ikki turkumga bo'lib o'rganish ma'qul hisoblanadi. Bunda sovet davridagi moliya hujjatlari Toshkent shahridagi har bir tuman (Kirov, Kuybishev, Lenin, Moskva, Oktyabr, Sergeli, Sobir Rahimov, Stalin, Frunze, Xamza, Chilonzor)ning mo'liya bo'limlariga oid fondlar va SSSR Sberbanki Toshkent shahar boshqarmasiga tegishli C-0559 fondini kiritish mumkin.

Mustaqillik davriga oid moliya va bonk sohasiga oid hujjatlarni Toshkent shahrining har bir tumanining moliya bo'limlari hujjatlari jamlangan fondlar va Xalq banki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar bosh boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy banki Toshkent shahar bosh boshqarmalariga tegishli hujjatlar asosida jamlangan fondlarni



kiritishimiz mumkin.

Bundan tashqari Toshkent shahar iqtisodiyoti bo'yicha qilingan ishlar va ularning samarasi, Toshkent shahar iqtisodiyoti sovet davrida qay holatda edi-yu, mustaqillik davrida qanday darajaga ko'tarilganligi, sovet davrida ya'ni 1960-yil tashkil etilib, mustaqillikdan keyin ham hujjatlар bilan to'ldirilgan Toshkent shahar Iqtisodiyot boshqarmasiga tegishli M-0648 fondi muhim ma'lumotlar beradi. Ushbu fonda 1960-2016-yillarga oid 885 ta yig'majild jamlangan.

Sovet va mustaqillik davrida Toshkent shahrida amalga oshirilgan qurilishlari, sovet davridagi Toshkent bilan mustaqillik davri Toshkent shahri qiyofasidagi o'zgarishlar hususida Toshkent shahar mehnatkashlar deputatlari soveti ijroiya komiteti kapital qurilish bosh boshqarmasi (C-0563 fonfi, 1956-1992-y.) va "Toshkent shahar yo'l qurilish va ta'mirlash tresti" (C-0630 fondi, 1947-2017-y.) hujjatlari muhim ma'lumotlarni beradi.

Har bir davlatning eng muhim sohalaridan biri bu – hech shubhasiz ijtimoiy sohadir. Toshkent shahar Markaziy davlat arxivida ham bu sohaga oid ham sovet davri, ham mustaqillik davriga oid juda ko'plab e'tiborga molik ma'lumotlar jamlangan.

Bu ma'lumotlarni o'rganish orqali biz sovet davri bilan mustaqillik davrida Toshkent shahri hayoti misolida butun O'zbekiston Respublikasi hududida ijtimoiy hayot, sog'liqni saqlash sohalari qay darajada ekanligini, yillar davomida ro'y bergan o'zgarishlar, mustaqillik yillarda bu soha rivojida qilingan ishlar xususida batafsil ma'lumot olishimiz mumkin. Bundan tashqari jamoat tashkilotlari va kasaba uyushmalari va ularga yaratilgan imkoniyatlar haqida ham bilib olishimiz mumkin.

Bu fondlar ro'yxatiga so'glibi saqlash sohasida sovet davrida qilingan ishlarni Davlat sanitary inspeksiyasi sanitariya-epidemiologiya stansiyasi (C-0178 fond, 202 ta yig'majild, 1939-1950-y.), Toshkent eski shahar kasalxonasi (C-0258 fond, 1920-1925-y.)larning ma'lumotlarini keltirish mumkin.

Ijtimoiy ta'minot sovet davrida qay darajada ekanligini Ishchilar deputatlari Toshkent shahar soveti ijroiya komitetining Ijtimoit ta'minot bo'limiga tegishli 1920-1973- yillardagi hujjatlarni jamlagan, 416 ta yig'majilddan iborat C-0249 fondi muhim ma'lumotlar beradi. Xususan unda Toshkent shahar ijroiya komiteti qarorlari, urush nogironlari va harbiy xizmatchilarning oilalari ro'yxatlari (1924-1937-yillar uchun), nogironlar va qizil askarlar oilalariga bir martalik nafaqa berish bo'yicha komissiya yig'ilishining bayonnomasi (1936-yil uchun), urush nogironlarini ishga joylashtirish bo'yicha hujjatlari va ularga pensiya tayinlash bo'yicha hujjatlari, shahar va rayon ta'minot bo'limlarining yillik rejalarini va ish hisobotlari, ko'p bolali va yolg'iz onalarga davlat nafaqalarini to'lash, yoshga doir va nogironlik nafaqa to'lovlari to'g'risidagi hisobotlar, harbiy xizmatchilar va halok bo'lgan askarlarning oilalariga ajratilgan nafaqalar to'g'risidagi hisobotlar, nafaqaxo'rللار, nogironlarning soni va ish bilan bandligi to'g'risida yillik statistik hisobotlar jamlangan.

Jamoat tashkilotlarining ichida sovet davrida Sobiq qizil partisan va qizil askarlar ishlari bo'yicha Toshkent shahar komissiyasiga tegishli 1931-1935-yillarga oid ma'lumotlar asosidagi 7310 ta yig'majildni o'zida mujassamlashtirgan C-0014 fondi ma'lumotlari e'tiborga molikdir. Ushbu fonda 1-Toshkent Qizil gvardiya polkining buyruqlari va bayonnomalari, okrug komissiya majlislari bayonnomalari, 1-Toshkent Qizil gvardiya polkining qo'mondonlik tarkibi va oddiy xodimlarning ro'yxatlari va sobiq qizil partisan va qizil askarlarning shaxsiy yig'majildidagi ma'lumotlar jamlangan.

Bundan tashqari Toshkent shahar "Знание" ("Bilim") jamoat tashkilotining 1956-1974-yillardagi faoliyatiga oid hujjatlari jamlangan 660 ta yig'majilddan iborat C-0243 fondi ham muhim ma'lumotlar beradi. Unda siyosiy va ilmiy bilimlarni tarqatish to'g'risidagi hujjatlari, xalq unversitetlari, "Bilim" jamiyatining boshlang'ich tashkilotlari faoliyati to'g'risidagi hujjatlari va ular bo'yicha ma'ruzalar va sharxlar jamlangan.

Sovet davrida kasaba uyushmalarining faoliyati bo'yicha ma'lumotlar jamlangan fondlardan eng muhimi Toshkent shahar kasaba uyushmalari kengashiga tegishli 1917-yil tashkil etilib, 1934-yil 22-sentabrda tugatilgan c-0204 fondi hisoblanadi. Unda 1917-1934-yillarga oid 71 ta yig'majilddan iborat ma'lumotlar jamlangan. Bu ma'lumotlar sirasiga Toshkent shahar korxonalardagi ishchilar soni to'g'risidagi ma'lumotlar, Turkiston va Toshkent kasaba uyushmalari harakati tarixiga oid hujjatlari, kasaba uyushmalari vakillarining ro'yxati va vakolatlari kiradi.



Mustaqillik yillarda ijtimoiy soha rivoji va holati Toshkent shahrida qanday yo‘lda ekanligini Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fondi<sup>1</sup> ma’lumotlari 1993-2003-yillardagi faoliyatiga oid 26 ta yig‘majilddan iborat M-0614 fondi orqali qisman bilib olishimiz mumkin. Ushbu fondda asosiy faoliyat bo‘yicha yillik statistika, mikrofirma va kichik korxonalarining hisobotlari (mehnat hisoboti), asosiy faoliyat bo‘yicha yillik buxgalteriya hisoboti, ma’muriy xo‘jalik harajatlari smetasi, shtatlar jadvali, smetalarni moliyalashtirish bo‘yicha hujjatlar kiradi.

Mustaqillik yillarda ijtimoiy muassasalar fondlaridan Toshkent shahar Markaziy davlat arxivining 2004-2012-yillardagi faoliyatiga oid 40 ta yig‘majilddan iborat M-0623 fondini misol tariqasida olishimiz mumkin. Bu fond 1973-yilda tashkil etilgan<sup>2</sup>. Bu fondda arxiv bo‘limlarining yillik ish rejalari va hisobotlari, yillik moliyaviy, buxgalteriya va statistik hisobotlar, shaxsiy tarkib bo‘yicha hujjatlar jamlangan.

Mustaqillik yillarda jamoat tashkilotlarining faoliyati qanday yo‘lga qo‘ylganligini “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining 2001-2009-yillardagi faoliyatiga oid hujjatlar jamlangan M-0609 fondi misolida ko‘rib o‘tamiz. Mazkur fondda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy faoliyati bo‘yicha buyruqlar va ko‘rsatmalar, yillik ish rejalar va ularning bajarilishi bo‘yicha hisobotlar, shtatlar jadvallari va yillik moliyaviy, buxgalteriya va statistik hisobotlar, shaxsiy tarkib bo‘yicha hujjatlar jamlangan.

Foydalanimilgan adabiyotlar:

1. Alimova va b.Toshkent tarixi(qadimgi davrlardan hozirgi kungacha).-T,2007.167-bet.
2. G‘ulamov R, Zayko G, Zotov A.Tashkent.Kratkiy spravochnik.-T,1958.-192s.
3. Narodnoye obrazovaniye v O‘zbekskoy SSR za 25 let(1924-1939).
4. Bo‘riyeva X.Toshkent shahrining tarixiy toponimikasi(XIX asr oxiri XX asr boshlari).T:Noshirlik yog‘dusi,2009.234-bet.

<sup>1</sup> O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 1992-yil 23-iyul PF-1823 sonli farmoniga asosan, O‘zbekiston pochta va telekommunikatsiyalar agentligi xuzuridagi “Pochta va telekommunikatsiyalarni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” tashkil etilgan.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5834-son farmonining 6-bandiga binoan, Toshkent shahar davlat arxivini negizida Toshkent shahar markaziy davlat arxivini tuzildi.



SHOHRUX MIRZO  
(1377-1447)

*Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani 1-  
umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi  
Xolbekova Moxira Mamatkarmovna  
Tel:998994714206*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temurning kenja o'g'li Shohrux Mirzo hayoti va faoliyati haqida, uning bunyodkorlik va diplomatik aloqalari to'g'risida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tag'oy Turkon O'g'o, Saroymulkxonim, Gavxarshodbegim, go'shanishin, "Dorushshifo", Hirot.

Shoxrux Mirzo Amir Temurning to'rtinchi o'g'li bo'lib, 1377-yil 20-avgust, payshanba kuni dunyoga kelgan. Tarixchi Xondamirning bergan ma'lumotiga ko'ra, Shoxruxning onasi Tag'oy Turkon og'a Sohibqironning xos kanizaklaridan bo'lib, Amir Temur keyinchalik uni o'z nikoxiga olgan. Shunday bo'lsa ham Shohruxni Saroymulkxonim tarbiyalab voyaga yetkazgan.

Shohrux Mirzo yoshligidanoq ahkomi shariatga qattiq rioya qilib, diniy kitoblarga qiziqqan. U 20 yoshigacha otasi Sohibqiron yonida bo'lib, harbiy yurishlarda, jumladan, Falastin yurishida ham faol ishtirok etgan. Amir Temur 1397-yilda unga Xuroson, Seiston va Mozandaron hokimligini bergach, to 1405-yilgacha Xuroson hukmdori degan nom bilan kifoyalangan. Otasi vafotidan keyin vujudga kelgan taxt uchun kurashlarda aynan Shohrux Mirzo g'alaba qozonadi va Movarounnahr, Ozarbayjon, Iroq, Xuroson va Shimoliy Afg'onistondan iborat katta bir davlat jilovini qo'liga kiritib, Hirotni o'zining poytaxti deb e'lon qiladi va "ulug' xoqon" sifatida saltanatni boshqarishga kirishadi.

Shohrux Mirzo ko'p vaqtini toat-ibodat va kitob mutolaasiga sarflarkan, devon va saltanatni boshqarishda o'ktam va tadbirkor xotini Gavharshodbegim faol ishtirok etgan.

Shohrux Mirzo ixlos va niyozmandlik yuzasidan darveshlar hamda go'shanishinlarga iltifotlar ko'rsatib, Hirotning Jome' masjidida namozni xaloyiq bilan birga o'qirdi. Juma namozlarining birida (1427-yil 21-fevral) Ahmad ismli kimsa masjid ichida Shohrux Mirzoga pichoq uradi. Ahmad o'sha zahoti qatl etiladi. Tabiblarning jonbozligi va olloohning inoyati bilan zaxm bitib, Shohrux Mirzo tuzalib ketadi. Shohrux Mirzo umrining oxirigacha o'ziga valiahd tanlashga ikkilanib yuradi. Shohrux Mirzo 1447-yilda nevarasi Sulton Muhammad isyonini bostirib qaytayotganda Ray viloyatida 70 yoshida vafot etadi.

Xuroson Shohrux Mirzo davrida irtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy jihatdan ancha rivojlandi. Ko'plab bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, rabotlar, sardobalar, qishloq va qo'rg'onlar bunyod etildi va mazkur qurilishlar vaqf mulklari bilan ta'minlandi. Shohrux Mirzoning mo'tadil ichki va tashqi siyosati Xurosonda tinchlikning barqaror bo'lishiga olib keldi. Bu davrda tijorat, hunarmandchilik, dehqonchilik yuqori darajada ko'tarila boshladi. Shohrux Mirzo mamlakat istiqbolini ko'zlab Xitoy va Hindiston hukmdorlari bilan diplomatik munosabatlarni yaxshilashga harakat qildi. Mazkur mamlakat elchilari Samarqand va Hirotda, o'z navbatida, G'iyosiddin Naqqosh rahbarligida Xitoya, Abdurazzoq Samarqandiy boshchiligidagi elchilar Hindistonda bo'ldilar. Shohrux Mirzo Hirot shahar qal'asining janub tomonida (1410-1411) madrasa va xonaqoh bunyod etdi. Bu paytda poytaxt Hirot va umuman Xurosonda madaniy va maishiy qurilishlar keng quloch yoyadi.

Hirotda bir nechta shifoxonalar mavjud bo'lib, bularning qatorida yana ikkita "Dorushshifo" quriladi. Bir so'z bilan aytganda Xurosonda Shohruh hukmronlik qilgan davr Xuroson tarixidagi oltin davr bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1 "Ma'naviyat yulduzları" Toshkent O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2011

2 Pirimqul Qodirov "Gavharshodbegim" Toshkent O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2004



## TARIXNI BILISH O'ZLIKNI ANGLASHDIR

*Djaborova Nafisa Sodikjonovna  
Surxandaryo viloyat, Denov tuman,  
78-umumiy o'rta ta'lim  
Maktabi tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tarix fanining hayotimizdagi o'rni, ahamiyati to'g'risida so'z boradi. Tarix fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni yanada fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, Zarafshon, Farg'ona vodiysi, Murg'ob daryosi, Aleksandr Makedonskiy, qadimgi davr madaniyati.

Mavoraunnahr Markaziy Osiyo xalqlari uzoq tarixga egadir. Eramizdan avvalgi I ming yilliklarda bu o'lkada, yunon manbalarida ko'pincha Skif(sak)lar deb nomlangan xalqlar istiqomat qilgan. Lekin, aholi o'zi yashagan joyining nomiga qarab turlicha atalgani ham adabiyotlarda keltirilgan. Masalan, Amudaryo quysisida yashaganlar xorazmliklardir; Zarafshon vodiysida yashaganlar sug'dlar; Murg'ob daryosi vodiysida yashaganlar marg'iyonlar; Farg'ona vodiysida yashaganlar –parkanlar kabi nomlar bilan ma'lum bo'lgan.

Markaziy Osiyoning shu vodiylarida boshlang'ich madaniyat markazlari vujudga kelgan. Eramizdan avvalgi V-VI asrlarga kelib bu o'lkalar Eron davlati tamonidan bosib olingan va shu davrda eng yirik dinlardan - Zardushtiylik shakllangan. Taxminan shu davrlardan boshlab, Markaziy Osiyoda shaharlar va shahar madaniyati ham tashkil topib bordi.

Eramizdan avvalgi IV asrga kelib Markaziy Osiyoning Aleksandr Makedonskiy tamonidan bosib olinishi natijasida, bu yerda yunon va yerli xalqlarning qorishgan davlatlari vujudga keldi. Yerli xalqlar madaniyatiga, yunon madaniyati, afsonalari ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi va aksincha, xalqimiz hayoti, afsonalari haqida ma'lumotlar, qadimgi yunon mualliflarining asarlariga kirib bordi.

Masalan, Kliment Aleksandrski, Ksenofont, Strabon, Ptolomey, Geredot asarlarida qadimgi xalqlarimizdagi turli madaniy – ma'naviy qadriyatlar, xalq qahramoni To'maris, Spitamen, Shiroq haqida ma'lumotlar va afsonalar keltiriladi. Bu davrda Markaziy Osiyoda keng tarqala boshlagan Zardushtiylik sof din bo'lib qolmasdan o'z davri ma'naviyatining eng muhum yo'naliishlarini tashkil qildi, o'sha davr xalqining madaniyati, ma'naviyati urf-odati axloqi kabi masalalarni o'z ichida aks ettiradi va ularga ham ta'sir ko'rsatadi. Zardushtiylikning asosiy qoidalari ayrim mualliflarining ta'kidlashicha Xorazmda yaratilgan "Avesto" da o'z ifodasini topgan.

Qadim kitoblarda ayon tarixing,  
Yovlar ham tan bergen so'zga mushtarak.  
Muqaddas "Avesto" ichra ta'rifing,  
Axuramazdaning mehridan darak.!  
Azizim Xorazm-go'zal Xorazm!

Zardushtiylik dastlab mehnatkash xalqning axloqiy qoidalarni o'zida ifodalagan bo'lsa, keyinroq ruhoniylar qo'lida siyosat yurgizishning asosiy quroliga aylanib qoldi. Bu davrga kelib Xorazmdagi yerli xalqning davlatchiligi shakllana boshladи. V-VI asrlarga kelib hukumron ruhoniylarga, zardushtiylikka qarshi qaratilgan, Mazdak boshlab bergen, mazdakizm ta'limoti shakllandi. Bu ta'limot dehqonlarni ularning huquqlarini himoya etib, tenglik, adolat o'rnatishtiga xizmat qildi.

Qadimgi davr madaniyati, ma'naviyati, jumladan, axloq, ma'rifat, ta'lim tarbiya haqidagi fikrlar xalq og'zaki adabiyotida folklorda turli xalq an'analarida ham o'z aksini topib kelgan.

Go'ro'g'li, Alpomish, Rustam haqidagi dostonlarda xalqimizning qadimgi urf-odatlari, ruhiyati, xulq - odoblarining ifodasini uchratishimiz mumkin. Bunday ma'lumotlar qadimgi sug'd, xorazm, turkiy yozuvlar namunalarida saqlanib qolgan manbalarda ham uchraydi.

VIII asrga kelib Markaziy Osiyoni arablar istilo qildilar va ular o'zlarini bilan yangi din, Islomni, olib keldilar va bosib olingan xalqlar orasida turli yo'llar bilan shu dinni tarqata boshladilar. Albatta, Markaziy Osiyoni arablar tomonidan bosib olinishi osonlik bilan bo'lmadi. Ko'plab qarshiliklar bo'lib o'tdi. Lekin, VIII asr oxiriga kelib Markaziy Osiyoda arab xalifaligining hukumronligi va islom dini uzil-kesil o'rnatildi.



Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tarixiy ongini yuksaltirish, tarixiy bilim va tafakkurini shakllantirish, tarixiy joylarga ko‘proq sayohatlar tashkil qilish, bizning ota–bobolarimiz, o‘tmishimiz qanday bo‘lganligini, ota-bobolarimiz mustaqillik uchun qanday kurashlar olib borganliklarini, mustaqilligimizning qadriga yetishi, uni asrab avaylashga, ularni vatanga mehrmuhabbatli qilib tarbiyalash, tarixiy madaniy, ma’naviy merosimizni asrab avaylashga o‘rgatishimiz, maktablarda turli tarixiy tadbirlar o‘tkazish bularning tarixiy ongini rivojlantirishning muhim omillari hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.:O‘zbekiston. 2017,2018,2019.
- 2.Xayrullayev M.M. Ma’naviyat yulduzları.T.:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
3. Ma’rifat yog‘dusi.Ilmiy-uslubiy, adabiy-badiiy jurnal.2009.3-son



## ҚАДРИЯТЛАР ЭШИГИНИНГ ХАЁЛИЙ ТУТҚИЧЛАРИ

Наимова Нодира Олимовна  
Бухоро давлат университети магистранти  
Телефон: 998 (97) 486 56 50  
[nodiranaimova\\_94@mail.ru](mailto:nodiranaimova_94@mail.ru)

**Аннотация:** Мақолада бидъат маросимлардан бири “Биби Сешанба” ҳақида фикр юритилади. Туркий халқлар орасида кенг тарқалган, хаёлий тасаввурлар замирида юзага келиб, аёллар иштирокида ўтказилиб келинган шариатимизга зид қадрият тұғрисида маълумот берилген.

**Аннотация:** В статье освещается один из ритуалов бидъат “Биби Сешанба”. Он дал информацию о ценностях которые противоречит нашему закону шариата которое основан на мнимых идеях которые распространены среди тюрских народов.

**Annatatsion:** In this article it is discussed customs against religion about Bibi Seshanba. Among Turkish nations this custom was wide spread one, given information about which was against our religious customs.

**Таянч тушунчалар:** Маросим, дин, бидъат, шариат, тариқат, тақво, отинойи, маъбуда, Туркистан, зиёратгох, мусулмонлар идораси.

Ҳар бир халқ урф-одатлари, удумлари маросимлари ва ўтмишга чуқур ботган ўқ илдизлари билан жаҳон маданиятида ўзига хос ўрин тутади. Таракқий этган маданиятли халқнинг ўз тили, урф-одатлари, адабиёти, осори-атиқалари, анъанавий моддий ва маънавий бойликлари ҳар қанча фахрланса арзидиган хазинадир, албатта. Аммо, ибтидоси инсониятнинг қадим ўтмишига туташ, интихоси то қиёмат, мазмуни қирқ түяга юқ, ибрати миллат танламайдиган урф-одатларимиз қаторида шариатимизга<sup>1</sup> зид, амаллари бир-бирига номутаносиб, хаёлий тасаввурлар негизида ўтказиб келинадиган бидъат<sup>2</sup> маросимлар ҳам йўқ эмас. Шулардан бири Биби сешанба – бир қанча мусулмон давлатларида фақат аёллар иштирокида ўтказиладиган диний маросим<sup>3</sup> бўлиб, у “Биби мушкул кушод”<sup>4</sup> деб ҳам ютирилади. Кўпгина турк халқлари орасида кенг тарқалган бу маросим Туркистан худудларида Биби Сешанба, Туркияда Пайшанба қари (Пейшенбе-қари) ёки Паршамба пари, Эронда Биби-Хур ва Биби Нури<sup>5</sup>, Афғонистонда Биби Рисинда, Биби Чархи, уйғурларда эса Сешамба Биби деб аталган.

Хўш, ушбу маросим тарихи қандай? “Биби Сешанба” ўзи ким? Бир неча тарихий манбаларда қайд этилишича, “Биби сешанба” келиб чиқиши моҳиятига қўра, маъбуда рамзи бўлиб, унинг илдизи Ўрта Осиё ва Ўрта Шарқда Ислом дини келгунинга қадар кенг ёйилган маъбуда Анахита (Ноҳид)га бориб тақалад.<sup>6</sup> Анахита дәҳқончилик ва чорвачилик, ҳосилдорлик ва пишиқчилик маъбудаси ҳисобланиб, гўё унинг қудратига инсон ва ҳайвонлар, қушлар ва барча жониворлар ҳам бўйсунган, деб ҳисобланар эди. Шу тариқа у “Биби мушкул кушод”, яъни кишини ҳар қандай мушкулдан халос этувчи Она образига айланган.

Яна баъзи бир манбаларда Биби мушкул кушод Баҳоуддин Нақшбанднинг холалари деб келтирилади. Бошқа бир манбада эса “Мушкулкушод” ҳар чоршанба, “Биби Сешанба” эса сешанба кунлари ўтказилгани ҳақида маълумотлар учрайди<sup>7</sup>.

<sup>1</sup> шариат – арабча, дин. Мусулмонларнинг Қуръон асосида ишлаб чиқилган диний, жиноий ва фуқаролик қонун ва қоидалари мажмуи. Маъруфов З.М. Ўзбек тилининг изоҳли туфати. Москва.1981. II-том,Б-398.

<sup>2</sup> бидъат – арабча, диний ақидаларга киртилган ислоҳ, динга хилоф қилинган янгилик, динда кейин пайдо бўлган нарса. Маъруфов З.М.Ўзбек тилининг изоҳли туфати. Москва.1981. I-том, Б-111.

<sup>3</sup> маросим – арабча, диний ёки анъанавий урф-одатлар муносабати билан ўтказиладиган марака, йигин. Маъруфов З.М. Ўзбек тилининг изоҳли туфати.Москва.1981. I-том,Б-448.

<sup>4</sup> форс тилидан таржимаси “мушкулини осон қилувчи аёл”

<sup>5</sup> Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари, - Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 198.

<sup>6</sup> Сухарева О. А. Ислам в Узбекистане. –Т.: Изд.во Ан УзССР, 1960. – С. 40.

<sup>7</sup> Саттор М.. Ўзбек удумлари. Т.:1993. Б-197-198.



Юртимизнинг айрим ҳудудларида “Биби Сешанба”га атаб қурилган иншоотлар мавжуд бўлиб, улардан айримлари ҳақида қуйидаги маълумотлар келтирилади.

Самарқанд вилоятининг маркази бўлган Самарқанд шахрида (Гўри Амир мажмуасидан жанубда) “Биби Сешанба” зиётағоҳи ҳам мавжуд (Манзил: Хўжа Дониёрбек кўчаси 1-уй)



“BIBI SESHANBA” ZIYORATGOHI



Андижоннинг жануби-шарқий қисмида Кўрғонтепа ҳудуди Андижонсой яқинида ҳам “Биби Сешанба” зиёрагоҳи мавжуд

Юртимизнинг турли ҳудудларида Биби Сешанба (Сешанба она) маросими сешанба қунлари отинойи<sup>1</sup> бошлигига ўтказилган. Қуида биз маросимнинг Бухоро шахрида<sup>2</sup> қай тарзда ўтказилганлиги ҳақида маълумотга эга бўламиз.

Бу маросимда хонадон эркаклари иштирок этмайди. Иштирок этувчи аёллар сони чегараланмаган. Аммо, камида етти нафар бева аёл иштирок этиши шарт бўлган. Бу аёллар Биби Сешанба қиссанини эшитишиб, ўзларида мавжуд бўлган ҳаёт ташвишларини гўё унтишган, ғамлардан фориғ бўлишган. Ўзбек ва тожик ҳалқларида Биби Сешанба оиласи бахт, тикувчи ва йигирувчи аёллар ҳомийси рамзиdir. Одатга кўра, маросим турмушга чиқмаган қизи бор хонадонларда аёллар томонидан ўтказилган. Бунда албатта ўмоч оши (хамир овқат), 7 та чалпак (ёғда пишириладиган юпқа нон), 7 та оби нон, суюқ ва қуюқ таомлар пиширилган. Шунингдек, 2 та шамдан ҳам фойдаланилган. Маросимга қадар етти хонадондан бир косадан ун сўраб олинган ёки хонадоннинг тўрт бурчагига ликопчага ун солиб қўйилган ва шу ундан хамир тайёрланган. Баъзи ҳудудларда хамир райхон солинган сувдан тайёрланган. Бу биринчидан, райхон жаннат ўсимлиги деб ҳисоблангани билан, иккинчидан, таомга хушбўй ҳид бериши билан боғланган.

Маросимнинг асосий рамзларидан бири супра ҳисобланган. Супрада ун, косада сув, исириқ, туз, чой, шам қўйилган. Ун элаш билан боғлик турли одатлар бажарилган: маросим тугашидан олдин косадаги сув ҳаммага тарқатилган. Ҳар бир киши уч хўплаб, ният қилиб, бир-бирига узатиб ичиб чиқкан. Супрадаги исириқ, чой ҳар бир иштирокчига бир ўрамдан қилиб тарқатилган. Бунинг рамзи узоқ вақт фарзанд кўрмаган аёллар фарзанд кўриш ниятида чойни дамлаб ичишган, бош оғриғидан фориғ бўлиши учун исириқ тутатиб турилган. Ўмочдан чиқкан ўрик данаги гўё ҳомилали бўлишнинг рамзи сифатида қаралган. Отинойга сарпо, нон ва ширинликлар, оқ рўмолча, пул инъом қилинган.

Бу маросимда қилинаётган амаллар шариатимизда жоизми? Ўзбекистон Мусулмонлари идораси Хотин-қизлар масалалари бўйича бўлим бошлиғи Фотима Ҳабибуллоҳ қизи “Мамлакатимизнинг кўпгина вилоятларида яшовчи аҳоли орасида “Мушкүлкушод” ва “Биби Сешанба” маросимлари сақланиб қолган. Бу маросимлар бидъат маросимлардан бўлиб, аёлларнинг хурофий тасаввурларидан келиб чиқкан одатлардир”, - деган фикрни илгари сурди. Худди шу каби фикрларни Бухоро шаҳар Боло Ҳовуз масжиди имоми Жобир домла ва Баҳоуддин Нақшбанд зиёратгоҳи имоми Фоғуржон домла ҳам таъкидладилар. Диний маросимга оид таомнинг тайёрланиш жараённида бидъат мавжудлиги исрофгарчиликнинг

<sup>1</sup> отин – XX асрнинг биринчи чорагигача уйида (эски) мактаб тутган, болаларни ўқитган аёл. Маъруфов З.М. Ўзбек тилининг изоҳли туғати. Москва.1981. I-том, Б-549.

<sup>2</sup> Ўзбекистоннинг 12 вилоятидан бири бўлган Бухоро вилоятининг маркази. Бухоро шаҳар аҳолисининг этник таркибини асосан ўзбек, рус, форс (эронийлар), туркман, тожик, украин, корейс, татар ва бошқалар ташкил этади.



тарғиб қилиниши, авлиёлар ёки уларнинг мозорлариға сиғиниб қурбонлик қилиниши, кейин бундан таомларнинг тайёрланиши ислом таълимотига зид бўлиб, шариат томонидан таъқиқланганлиги Қуръон оятлари, ҳадислар ва мусулмон диний уламолари фатволарида айтиб ўтилади.<sup>1</sup>

Ҳозирги кеча-кундудза тўй-ҳашам ва маросимларни қисқартириш давлатимиз сиёсатида ҳам бош омил бўлиб туриди. 2019-йилнинг 14-сентябрида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Сенати ва Қонунчилик палаталари иштирокидаги йигилишда “Тўй-ҳашамлар, оиласвий тантаналар, маърака ва маросимлар, мархумларнинг хотирасига бағишланган тадбирлар ўтказилишини тартибга солиш тизимини такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори шулар жумласидандир. Давлатимиз раҳбари таъбири билан айтганда ота-оналаримиз ортиқча исрофгарчиликка сарфлаётган пулларини фарзандларининг келажаги йўлида сарфласалар эртамиз бугунданда порлоқ бўлажак.

Шунинг учун ҳам ҳозирда бу маросим Бухоро воҳасида ўтказилмайди. Юқоридаги кабилар халқнинг тақвосига тутилган азанинг мотам мароси-мидир. Ҳақ бундай балоларни номавжудлик чоҳидан мавжудлик тахтига чиқармасин, йўқлик зиндонидан борлик шахрига йўлатмасин. Икки чексизлик орасидаги вақт учқунимиз иймон нуридан ёруғ бўлсин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев.Ш.М. Эркин ва фаровон, Демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон.
2. Каримов.И.А. Она юртимиз баҳт-у иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш энг олий саодат. Т.: Ўзбекистон.
3. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари, - Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
4. Сухарева О.А.Ислам в Узбекистане. –Т.: Изд-во АН УзССР, 1960. –С.40.
5. Маҳмуд Саттор Ўзбек удумлари. Т.: Фан.1993.
6. Маъруфов З.М. Ўзбек тилининг изоҳли туғати. Москва.1981. I-II-томлар.
7. Шодмонқул Салом. Маънавият қирғокларидан туриб.... Маънавий ҳаёт. №4. 2016
8. [http://gerbisher dor.blogspot.com/2011/05/blog-post\\_15.html](http://gerbisher dor.blogspot.com/2011/05/blog-post_15.html)
9. <https://bong.uz/ar/zhamiyat/266-e-son-zijorat-tilanchi>
10. <http://m.zamin.uz/oz/hayot-tarzi/49305-bibi-seshanba-va-mushkulkushod-islomda-bormi.html>
11. <https://www.blackwarlock.ru/viewtopic.php?t=43200>
12. <http://islamperspectives.org/rpi/items/show/17054>
13. <https://www.mifinarodov.com/b/bibi-mushkilkusho.html>

1 Куръоннинг “Бақара”, “Моида” ва “Анъом” сураларида айнан шулар ҳақида сўз боради



## “АРОБАК”-БУРУН ҲАЛҚАСИ

Султонова Нигина  
Бухоро давлат  
университети магистранти  
Tel:(90)513-14-18

**Аннотация:** Мақолада аёллар тақинчоқларидан бири бўлган аробак ва унинг шакллари, элементлари хусусида сўз юритилади. Шу билан бирга тақинчоқларда ҳалқнинг этник тарихидаги маҳаллийлашган анъана, ижтимоий муносабат ва мафкуранинг айrim элементлари ўз аксини топганлиги таҳлил қилинади.

**Калит сўзлар:** аёллар тақинчоқлари, аробак, латипа, булоқи.

Ўзбек ҳалқининг кийимлари жуда хилма-хил, ранг-баранг ва жозибалидир. Айниқса аёллар кийим-кечаклари, уларнинг турлари ва ҳар бир деталлари ҳали ўрганилмаган алоҳида бир тадқиқот мавзуси ҳисобланади.

Аёллар кийим-кечагининг нағислиги, уларнинг хилма-хил ва гўзал бўлишига моҳир ўзбек заргарлари томонидан тайёрланган зеб-зийнатлар ҳам янада қўрк қўшиб турган. Бухоро воҳаси анъанавий, миллий кийим-кечакларининг ажралмас қисми тақинчоқлар бўлиб, улар этнология фанида ўрганилган<sup>1</sup>.

Тақинчоқлар ҳам, худди кийимлар сингари узоқ асрлар давомида шаклланган бўлиб, уларнинг тарихида ўзига хос миллий маданият хусусиятлари, бир ҳалқнинг бошқа бир ҳалқ билан ўзаро иқтисодий алоқалари сиёсий тузумнинг миллий маданиятга таъсири на-моён бўлади. Аёллар тақинчоқлари ҳам давр талабига, ижтимоий муҳиттга, табиий шароитга қараб ўзгариб, унинг сафи йилма-йил янги бўлаклар ва шакллар билан бойиб борган. Шу билан бирга тақинчоқ ўзининг энг қадими анъанавий шаклини сақлаб қолиб, авлоддан авлодга мерос тариқасида ўтиб келган.

Аёллар тақинчоғининг тўлиқ қисмини сочга, қулоққа, бўйинга, қўкракка ва қўлга тақиладиган безаклар ташкил этади. Бой хотинлар ва ёш келинчаклар байрамларга, тўй-ҳашамларга бурунга тақадиган тақинчоқ – “аробак” ҳам таққанлар. Мазкур тақинчоқ воҳада яшовчи ўзбек-туркманларда ҳам мавжуд бўлиб “латипа”, Нурота воҳасининг айrim қишлоқларида эса “булоқи” деб ҳам аталган<sup>2</sup>. Зарафшон водийсининг марказий қишлоқларида бурун тақинчоғи “натабини”<sup>3</sup> деб аталади. Мазкур тақинчоқни Б.Х.Кармышеванинг асарида<sup>4</sup> ҳам қайд этилганини кўришимиз мумкин. Н.Азизованинг таъкидлашича, бурун тақинчоғи ҳисобланган “аробак”ни Бухоро заргарлари тайёрлагандар<sup>5</sup>.

Бурун ҳалқаси “аробак” ёки “арабек”нинг кенг тарқалиши дастлаб араб савдогарларининг савдо фаолияти билан, сўнгра арабларни босиб олиши билан боғлиқ. Келиб чиқиши ва шакли жиҳатидан улар камон шаклига ўхшаш “ҳалқа-и Мухаммади “сирғаларига яқин<sup>6</sup> ва улар буруннинг қанотлари(бурун ён томонларининг бурун учига бирлашган ҳаракатчан қисми) ва септуми(бурун катакчаларини ўзаро ажратиб турувчи қисми)<sup>7</sup>га тақилган.

Шуни айтиш жоизки, Бухоро давлат музей-кўриқхонаси тарихимизнинг бой маданий меросини каттагина қисмини ўзида сақлаб ва ўрганиб келаётган маданият маркази ҳисобланади. Жумладан “Арқ” вилоят ўлкашунослик музейи “Санъат ва этнография” илмий бўлими кўргазмасидан ўрин олган ва музейнинг кирим китоби(КП книга музея заповедника)да 499/8-инвентар рақам билан рўйхатга олинган экспонат ҳам Бухоро воҳасидан

<sup>1</sup> Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма Самарканда (2-я половина XIX-начало XXв) Москва 1982. С-17

<sup>2</sup> Йўлдошева Г. Нурота аёлларининг анъанавий тақинчоқлари(XIX аср охири- XX бошлари)//Ўзбекистонда ижтимоий фанлар 1995 й № 5 Б-82

<sup>3</sup> Мукимов Р.С. Материальная культура таджиков верховьев Зеравшана. Душанбе 1973. С.227

<sup>4</sup> Кармышеванинг Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. Сталинабад 1954. С-156

<sup>5</sup> Азизова Н.К. Ювелирные изделия Узбекистана. Ташкент. 1968. С-10

<sup>6</sup> Фахретдинова Д.А. Ювелирное искусство Узбекистана Ташкент 1988. С-127

<sup>7</sup> Карабаев Х., Омонов Ш., Гулямов Ш. Бурун бурун ёндош бўшликларининг клиник анатомияси, физиологияси ва текшириш усуллари. Тошкент 2012. Б-7



топилган бурунга тақиладиган тақинчоқ<sup>1</sup>нинг намунасиdir. Музей фондида сақланаётган 10 га яқин шу турдаги аробаклар ўрганилганда уларнинг деярли барчаси кумушдан ишланганлигини, тақинчоқ ҳалқасининг пастки қисми мунчоқлар билан безатилганлигини гувоҳи бўлдик. Тақинчоқлар тўлиқ айлана шаклда ясалмаган бўлиб, уларнинг пастки қисмida бурун сирғалари учун маҳсус ишлаб чиқилган "латва тоши" жойлаштирилган. Бу тош ҳимоя тоши деб ҳам номланган тўрт қиррали яшил шишадан ясалган ва бу мунчоқ терига шикаст етказмаслик учун ҳимоя қийматига эга бўлган. Аробакларнинг пастки қисмida учтадан ўн иккитагача рангли ва қимматбаҳо тошлар билан безак берилган. Айримлари эса қимматбаҳо тошлариз кумушдан ишланган спиралсимон симлар билан ишлов берилган.

Бугунги кунда Ўрта Осиё ҳалқларининг миллий кийимларини ўрганиш бевосита этник тарихи ва маданиятини, унинг бошқа ҳалқлар билан ўзаро алоқаларини тадқиқ этиш билан чамбарчас боғлиқдир. У моддий ва маънавий ёдгорликлар ичида ҳалқларнинг миллий ўзига хослигини акс эттирувчи ва этник белгиларини кўрсатувчи асосий омилдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма Самарканда (2-я половина XIX-начало XXв) Москва.1982. С-17
2. Йўлдошева Г. Нурота аёлларининг анъанавий тақинчоқлари (XIX аср охири- XX бошлари)/Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1995.№ 5 Б-82
3. Мукимов Р.С. Материальная культура таджиков верховьев Зеравшана.Душанбе. 1973. С.227
4. Кармышеванинг Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. Сталинабад.1954.С-156
5. Азизова Н.К. Ювелирные изделия Узбекистана. Ташкент. 1968. С-10
6. Фахретдинова Д.А. Ювелирное искусство Узбекистана. Ташкент. 1988. С-127
7. КП книга музея-заповедника



## TARIX DARSLARINI O'QITISHDA INTERFAOL TA'LIM TEKNOLOGILARIDAN FAOYDALANISH

*Imomaliyeva Xayriniso Choriyevna  
Surxondaryo viloyati Termiz shahar  
12-umumiyy o'rta ta'lif maktabi tarix fani o'qituvchisi  
Elektron pochta: xayriniso\_imomaliyeva@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix fanini o'qitilishida interfaol ta'lif texnologiyalarni qo'llanilishi bo'yicha nazariy va amaliy tushunchalar keltirilgan hamda ushbu texnologiyalarni dars o'tish jarayonida tadbiqi ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, interfaol, ta'lif texnologiyalari, sifatli ta'lif, dars, innovatsiyon mashg'ulot, ta'lif, tarbiya.

Ta'lif jarayonining qaysi bosqichida bo'lishidan qat'iy nazar, o'quvchilarni mustaqil faoliyatga yo'naltirish asosida tashkil etishi milliy tarbiyashunoslikning maqsadiga muvofiq keladi. Yangi interfaol ta'lif texnologiyalari asosida darslarni tashkil etish yaxshi natija berishini amalaiy tajribalarda sinalinib kelinmoqda. Jumladan, "Aqliy hujum", "Xotira mashqi", "Yillar estafetasi", "Jadvallar bilan ishlash" asosidagi tashkil etilgan darslar o'quvchilarning nutqini va ilmiy dunyoqarashini oshiradi. O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib, har bir savol uchun bir daqiqa davomida babs yuritadi. Qaysi guruh faolligi kuchli bo'lsa, shu guruh g'olib sanaladi. Guruhlarning ham jihatlik bilan ishlashga birgalikda samarali mehnatqila olish va savolarga faol javob berishiga qaratilgan Yangi mavzuni o'zlashtirishda ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish hayot davomida o'qib-o'rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish komponentsiyalari shakillantirib boriladi.

Shuningdek, bahs davomida: "Mumkinmi, so'zlasam", "Uzr, fikringizga biroz e'tirozim bor" kabi jumlalar bilan boshlashlari shart. Bu orqali o'quvchilarning nutq madaniyati shakllanib boradi. O'quvchilarning toliqib qolishi inobatga olinib, xotira mashqi usuli orqali o'quvchilarning xotirasini mustahkamlanadi.

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'linda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egalashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndiradi.

Endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi. Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o'rniga zamonaviy darslarni tashkil etishga ma'suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma'suliyatli, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'lindi tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda.

Shuning uchun ham, ta'lif muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularni ta'linda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiyafaqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proyektor yoki boshqa texnik vositalar bilan bog'liq. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o'qituvchi yoki o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq. O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh harakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film(yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborat texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'lar. Bularning hammasi o'qituvchi va o'quvchilarga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida bir soatlik dars jarayonini tashkil etish bosqichini ko'rib o'tamiz.



Darsning mavzusi: **Abbosiyalar davrida Xuroson va Movorounnahr Abu Muslim qo‘zg‘oloni.**

Dars maqsadi :

a) ta’limiy maqsad —o‘quvchilarga Ummaviylarga qarshi halq harakatlarining kuchayishi, Abu Muslim haqida, uning Ummaviylarga qarshi targ‘iboti va qo‘zg‘oloninig mohiytaining tushuntirib, Abbasiyalar davrida Xuroson va Movorounnahr to‘g‘risida tushunchalar hosil qilish orqali tarixiy bilimlarini kengaytirish .

b) tarbiyaviy maqsad : O‘quvchilarni ozodlik uchun kurash xalqparvarlik va tinchiliksevarlik ruhida tarbiyalash.

s) rivojlantiruvchi maqsad - o‘quvchilarni tarixiy ongini rivojlantirish guruhlar bilan ishslash ko‘nikmasini rivojlantirish.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi;

Darsda foydalaniladigan metodlar: aqliy hujum ,savol javob , xotira mashqi yillar estafetasi guruhiy ishslash metodlardan foydalanish

Darsda foydalaniladigan jihozlar: O‘zbekiston tarixi darsligi 7-sinf .doska bo‘r texnik vositalar, slaydlar, ko‘rgazmali va didaktik materiallar. tarixiy xarita, rasmlar tarqatmalar

T/r Darsning blok sxemasi	Vaqti
1. Tashkiliv qism	2 daqiqa
2. Kun yangiliklari siyosiy axborot	3 daqiqa
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash	8 daqiqa
4. Yangi mavzu bayoni 15 daqiqa	
5. Yangi mavzuni mustahkamlash	12 daqiqa
6. Baholash	3 daqiqa
7. Uyga vazifa berish	2 daqiqa

Darsni tarkiban quyidagi qismlarga ajratish mumkin:

I-bosqich Tashkiliy qism; Salomlashish davomatni aniqlash darsga tayyorgarlik kun yangiliklari siyosiy axborot bilan tanishish

O‘quvchilar kichik 5 guruhgaga bo‘lingan holda o‘tiradilar.

II - bosqich O‘quvchilaga O‘tilgan mavzuni takrorlash (mustahkamlash) maqsadida guruhlarga quyidagi savollar beriladi. savollar tarqatma kartochkalar asosida tarqatilib savol tartibi asosida guruhlardan so‘raladi.

1-savol:

Xalifalik bosqinlariga qarshi qo‘zg‘olon sabablarini aytинг ?

2-savol :

Sug‘d qozg‘oloni va uning hatijalari qanday bo‘ldi ?

3-savol :

Bosqinchilarga qarshi qo‘zg‘olonlar oqibatida qanday o‘zgarishlar yuz berdi

4-savol :

Qanday omillar Arab xalifaligida siyosiy vaziyatni keskinlashuviga olib keldi ?

5-savol – VIII- asrning 40 yillarda qanday voqealar roy beradi

Savollarga o‘quvchilar tez va aniq javoblar qaytarishdi. O‘tilgan mavzu yuzasidan o‘qituvchi tomonidan yakun yasalib,yangi mavzuga o‘tildi .

III – bosqich Yangi mavzuni tushuntirish: o‘qituvchi tomonidan yangi mavzu yuzasidan egallanishi lozim bol‘gan Tayanch tushunchalar: Zulmning kuchayishi;Abu Muslim targ‘iboti; Abu Muslim qo‘zg‘oloni; Abbasiyalar va yangi mavzu mundarijasi bilan tanishtiriladi .

o‘quvchilar guruhi birgalikda samarali mehnat qila olish berilgan muammoni hal qilish uchun zarur ma‘lumotlarni turli xil manbalardan to‘plash, tartibga solish, tahlil qilish malakasini rivojlantirish maqsadida

“Aqliy hujum” usuli asosida

o‘qituvchi bolalarga siz Arab xalifaligi va arab xalifaligi sulolalari to‘g‘risida nimalarni bilasiz deb savol tashlaydi. O‘quvchilar quyidagi ma‘lumotlarni aytishadi.

1. Arab xalifaligi – barcha hokimiyat Muhammad (S.A.V.)-ning o‘rinbosarlari xalifalar qo‘lida toplangan davlat.

2. Arab xalifaligi 632-1258 yillarda faoliyat yuritgan.



3. Arab xalifaligi -Arabiston yarim oroli. Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Afrika, Ispaniya, Markaziy Osiyo va Kavkazortini o'z ichiga olgan saltanat.

4. Arab xalifaligi -VI- VIII asrning birinchi yarmida ulkan hududlarni egallagan davlat.

5. Arab Xalifaligi- asoschisi payg'ambar Muhammad(sav)ning eng yaqin safdoshi xalifa Abu Bakr - Arablar yuqorida zikr etilgan mamlakatlarni 633—715 yillar orasida bosib olganlar. Bu mamlakatlar asosan "Xula-fo Ar-Rashidin" ("To'g'ri yo'ldan boruv-chi xalifalar") va umaviylar zamonida fath etildi. Xalifa Umar davrida (634-644 –yillar) kuchli markazlashgan davlat va jangovar armiya tashkil topadi.

6. Arablar armiyasining asosiy zarbdor kuchini otliq qo'shinlar tashkil qilgan.

7. Xalifa Umar davrida (634-644 –yillar) kuchli markazlashgan davlat va jangovar armiya tashkil topadi.

8. Arab xalifaligi davlatining poytaxti – Damashq shahri bo'lgan.

9. Arab xalifaligi davlatini 2ta sulola –Ummaviylar 661-750 va 750-1258 yillargacha boshqargan.

10. Abbosiylar- Muhammad(sav)avlodiga mansub sulola.

Har bir to'g'ri javoblar uchun guruhlar rag'batlantirib boriladi.

Yangi mavzu o'quvchilar yordamida yoritiladi.

Mavzularga javob berishda har bir guruh azolari ishtirok etadi, o'quvchilar qo'shimchalar kiritib boradi O'qtuvchi o'quvchilarning javoblarini nazorat qilib, to'ldirib boradi. Har bir guruh azosi o'z javobini rasmlar, xaritalar va boshqa manbalaar yordamida tushuntiradilar .

Yangi mavzu yuzasidan savollar yozilgan kartochkalar guruhlarga tarqatildi.

Bunda darslikda berilgan faollashtiruvchi savollardan foydalanan o'rinnlidir. Ushbu savollar o'quvchilarda mavzuga oid bo'lgan mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni, shuningdek, kompetentlikni aniqlashga yordam beradi. mavzuga oid shakllangan bilimlar asosida savollarga javob topish o'quvchilarda kommunikativlik va axborotlarni saralash kompetentsiyalarni shakllanishiga turtki bo'ladi.

1. Nega Ummaviylarga qarshi xalq noroziligi vujudga keldi?

2. Abu Muslim qo'zg'olonida ishtirok etgan turli tabaqa vakillarining maqsadlari taqqoslang?

3. Abu Muslim qozg'olonida qanday natijalarga erishdi yilnomalar asosida tushuntirib bering?

4. Abbosiylar davrida Movorounnahrda qanday o'zgarishlar sodir boldi ?

5. 751-775 yil voqealarni izohlab bering?

Berilgan savollarga o'quvchilar guruhi navbat bilan javob beradilar. Har bir javob o'qituvchi tomonidan slayd taqdimoti asosida to'ldirilib boriladi.

IV- bosqich Yangi mavzuni mustahkamlash: o'rganilgan mavzuni xotirada saqlab qolish, mohiyatini idrok etish va tushunganlikni namoyish qilish,

O'zining fikrni va qarashlarini tarix ta'limida olgan bilimlari asosida himoya qila mavzuni mustahkamlash va ularni baholash uchun quyidagi savollar va topshiriqlar beriladi . har bir guruhga 2 tadan savol beriladi slayd taqdimoti asosida "Xotira mashqi" Tezkor savollar uslubi qo'llaniladi

- Kimning davrida Ummaviylarga qarshi xalq xarakatlari kuchayadi ?

(Marvon II .)

- Songgi Ummaviy Arab Xalifasi Kim ?

(Marvon II )

- Abu Muslim Qarorgohi ?

( Maxuvon)

- Qullarga tayinlangan targ'botchi va tayinlangan joy?

(Dovud Shaval qishlog'i)

- Abu Muslim Xitoy qo'shinlarini qarshi kurshish uchun kimni jo'natdi?

(Ziyod Ibn Solihni.)

- Abbosiylar sulolasining 1- Xalifasi?

( Abul Abbas Saffoh)

- Abu Muslim qo'zgolonchilarining libosi qanday rangda edi?

(qora)

- Movorounnahrda Abbosiylarga qarshi qayerda qozg'olon ko'tarildi?

(Buxoro)

- Abu MuslimKimning buyrug'i bilan oldiriladi?



( Xalifa .)

- Abu Muslim qo‘zgolonida kimlar ishtirok etgan edi?
- 1. Arab zodogonlari 2. Mahalliy mulkdorlar 3. Mazlum xalqlar
- 4. Qullar

“Yilnomani izohlang” estafeta oyini barcha guruhlarga jadvalarni toldirish beriladi Bo‘sh kataklarga mavzudagi voqealari yillarni yozib chiqish orqali har bir guruhga tarqatiladi guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tekshirilib baholanadi.

To‘gri javoblar manitorda ko‘rsatiladi guruhlar o‘z ishini va xotosini aniqlab olinadi guruhlardan yilnomaning bittasini ingliz tilida aytib berish so‘raladi.

<b>Yillar</b>	<b>Voqealar</b>
	Marvon II xalifalik taxtini boshqargan davri
	Abu Muslim Xuroson Poytaxti Marvning egallashi
	Abul Abbos Saffoh nechanchi yil xalifalik taxtini egalladi
	Abu Muslim Nechanchi yil oldirildi
	Talos vodusida Xitoy qo‘sishinlarining quvib chiqarilishi

<b>Yillar</b>	<b>Voqealar</b>
744-750	Marvon II boshqargan davri
748	Abu Muslim Xuroson Poytaxti Marvning egallashi
750	Abul Abbos Saffoh nechanchi yil xalifalik taxtini egalladi
755	Abu Muslim Nechanchi yil oldirildi
751	Talos vodusida Xitoy qo‘sishinlarining quvib chiqarilishi

To‘g‘ri javoblar uchun rag‘bat kartalar berib boriladi

V- bosqich O‘quvchilarni baholash: Xulosalash 3 daqiqa

VI bosqich - uyga vazifa berish. 2 daqiqa

1.Mavzu yuzasidan savollarga tayyorlanish .

2. Keyingi darsda o‘tiladigan “Oq kiyimlilar qo‘zgoloni ” mavzusi bilan tanishib kelish Xulosa o‘rnida shuni takidlash joizki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llash jarayonida o‘quvchilar, “Kognitiv” o‘quv maqsadlari sohasida – nazariy bilimlarni oladi, “Psixomotor” o‘quv maqsadlari sohasida – olgan nazariy bilimlarini turli mashqlarni bajarish orqali mustahkamlaydi, “Affektiv” o‘quv maqsadlari sohasida – ularda kelajakka umidvorlik hissi uyg‘onadi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Begimkulov U.SH., Djurayev R.X., Isyanov R.G., Sharipov SH.S., Adashboyev SH.M., Soy M.N. Pedagogik ta’limni axborotlashdirish: nazariya va amaliyat, Toshkent: – 2011.
2. A.A. Abduqodirov, R.Ishmuxamedov, A.Pardayev. Ta’limda innovasion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2008.-180 bet.
3. R.Ishmuhamedov., M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovasion pedagogik texnologiyalar.-T.: “Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.
4. Tarix fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Jizzax. 2014 yil. 5-21 bet.

Elektron ta’lim resurslari

1. ziyouonet.uz – Ta’lim tarmog‘i portali.
2. rtm.uz – Respublika ta’lim markazi.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(3-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2020

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000